

## **NOALKOGOLLI JIGAR GEPATOZINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDA SELEKTINLARNING ROLI**

*Ro'zimova Gulhayo Bayram qizi*

*Terapiya mutaxassisligi 1-bosqich magistranti*

*Urganch davlat tibbiyot instituti, Urganch, O'zbekiston*

**Dolzarbliqi.** Noalkogolli yog'li jigar kasalligi (NYJK) dunyo bo'yicha eng keng tarqalgan surunkali jigar kasalliklaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda semizlik, metabolik sindrom, insulinrezistentlik va 2-tip qandli diabet bilan kasallanish ko'rsatkichlarining ortishi natijasida ushbu kasallikning tarqalishi ham sezilarli darajada oshib bormoqda. NYJK dastlab jigarda yog' to'planishi bilan xarakterlansada, keyinchalik steatohepatit, fibroz, sirroz va gepatotsellyulyar karsinoma rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Kasallik patogenezida surunkali yallig'lanish, oksidlovchi stress, endotelial disfunktsiya va immun javob reaksiyalari muhim o'rin tutadi. Selektinlar hujayralararo adgeziya molekullari bo'lib, leykotsitlarning qon tomir devoriga birikishi va yallig'lanish o'chog'iga migratsiyasini boshqaradi. E-selektin, P-selektin va L-selektinlarning ekspressiyasi ortishi jigarda yallig'lanish jarayonlarini kuchaytirib, fibrogenez rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois selektinlarning noalkogolli jigar gepatozi shakllanishi va rivojlanishidagi rolini o'rganish kasallikning patogenetik mexanizmlarini chuqurroq anglash, yangi diagnostik biomarkerlarni aniqlash hamda davolash strategiyalarini takomillashtirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

**Tadqiqot maqsadi.** Noalkogolli jigar gepatozi bilan kasallangan bemorlarda E-selektin, P-selektin va L-selektinlarning qon zardobidagi darajasini o'rganish, ularning klinik-biokimyoviy ko'rsatkichlar, jigar steatozi va fibroz darajalari bilan bog'liqligini aniqlash hamda selektinlarning kasallik rivojlanishidagi diagnostik va prognostik ahamiyatini baholash.

**Materiallar va metodlar.** Tadqiqot Xorazm viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazi bazasida olib borildi. Tadqiqotga 25–70 yosh oralig'idagi jami 90 nafar noalkogolli jigar gepatozi tashxisi qo'yilgan bemor jalb qilindi. Bemorlar klinik holati va kasallikning og'irlik darajasiga qarab ikki guruhga ajratildi. Asosiy guruhga sirroz rivojlanish xavfi yuqori bo'lgan 60 nafar bemor, nazorat guruhiga esa sirroz rivojlanish

xavfi past bo'lgan 30 nafar bemor kiritildi. Barcha bemorlarda umumiy klinik tekshiruvlar o'tkazilib, tana vazni indeksi, arterial qon bosimi, glyukemiya va metabolik sindrom komponentlari baholandi. Laborator tekshiruvlar davomida ALT, AST, bilirubin, umumiy oqsil, albumin, umumiy xolesterin, triglitseridlar, LDL va HDL ko'rsatkichlari aniqlandi. Shuningdek, FIB-4, APRI va NFS fibroz indeklari hisoblandi. Qon zardobida E-selektin, P-selektin va L-selektin miqdori immunoferment tahlil (ELISA) usuli yordamida o'rganildi. Instrumental tekshiruvlar sifatida jigar ultratovush tekshiruvi va FibroScan elastografiyasi qo'llanildi.

**Natijalar.** Tadqiqot davomida noalkogolli jigar gepatozi bilan kasallangan bemorlarda selektinlar darajasining sezilarli ravishda oshganligi aniqlandi. Asosiy guruh bemorlarida E-selektin, P-selektin va L-selektin ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo'ldi. Selektinlar darajasi ALT va AST fermentlari faolligi, triglitseridlar miqdori hamda past zichlikdagi lipoproteinlar ko'rsatkichlari bilan musbat korrelyatsiyaga ega ekanligi kuzatildi. Jigar steatozi va fibroz darajasi ortishi bilan selektinlar konsentratsiyasining ham oshib borishi qayd etildi. Sirroz rivojlanish xavfi yuqori bo'lgan bemorlarda selektinlar miqdorining eng yuqori darajalari kuzatildi. Olingan ma'lumotlar selektinlarning jigardagi surunkali yallig'lanish jarayonlari, endotelial disfunksiya va fibrogenez rivojlanishida faol ishtirok etishini ko'rsatdi.

**Xulosa.** Noalkogolli jigar gepatozining shakllanishi va rivojlanishida selektinlar muhim patogenetik omillardan biri hisoblanadi. E-selektin, P-selektin va L-selektinlarning qon zardobidagi miqdori kasallikning og'irlik darajasi, jigar funksional holati va fibroz rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Selektinlarni aniqlash noalkogolli jigar gepatozining erta diagnostikasi, kasallik progressiyasini baholash va sirroz rivojlanish xavfini prognoz qilishda istiqbolli biomarker sifatida qo'llanishi mumkin. Tadqiqot natijalari NYJK bilan kasallangan bemorlarda individual monitoring va davolash taktikasini takomillashtirishga xizmat qiladi.